

## BOSHLANG‘ICH SINF O‘QISH SAVODXONLIGI VA TARBIYA DARSLARI MAZMUN-MOHIYATI

Abdurazzakova Shahrizoda Abdugaffarovna

Toshkent viloyati Angren shahar 6-maktab

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqola boshlang‘ich sinf o‘qish savodxonligi va tarbiya darslari mazmun-mohiyati haqida yozilgan.

**Kalit so‘zlar:** o‘qish, tarbiya, kitobxonlik, Dialog, urg‘u, tez o‘qish.

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligini qo‘lga kiritgach, o‘rtta ta’lim muassasalarini, xususan boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilari ta’lim tuzilmasi va mazmunini tubdan yaxshilash ustuvor axamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasining – Ta’lim to‘g‘rsidagi qonunga muvofiq “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” tasdiqlanib, u milliy va umumbashariy ma’naviy qadriyatlar, ma’naviy axloqiy fazilatlarni shakllantirshga yo‘naltirilgan.

Ma’lumki, o‘qish savodxonligi va tarbiya darslari mazmuni va vazifasi jihatdan bir-biriga yaqin bo‘lib, ushbu fanlarni inntegratsiyalash imkoniyatlari juda keng va qulay. O‘qish savodxonligi darslari o‘quvchilar og‘zaki nutqini o‘stirish bilan birga bir qator tarbiaviy vazifalarni amalga oshiradi. Tarbiya darslarining asosiy maqsadi esa o‘quvchilarni har tomonlama, milliy an‘analarimizga xos tarzda tarbiyalashdir.

O‘qish savodxonligi darslarida o‘quvchida to‘g‘ri, tez, ongli ifodali o‘qish malakalarini shakllantirish, ularni oddiy kitob o‘quvchidan chuqur muloxaza yurituvchi ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarish o‘qish orqali tevarak atrof borliq xaqidagi bilimlarni kengaytirish, ularning dunyoqarashini boyitish xar qanday uslubdagi matnni o‘qish va uni anglash, tanqidiy kreativ fikrlash ko‘nikmasini egallash nazarda tutiladi. Boshlang‘ich sinf o‘qish darslarining asosiy vazifasi o‘quvchilarni o‘quv bilim faoliyatiga tayyorlash, boshqalar bilan muloqatga kirisha oladigan, o‘z fikrini boshqalarga tushunarli tarzda etkaza oladigan shaxsni shakllantirishdan iborat.

Shu yil ya’ni 2021-2022-o‘quv yilida ishlab chiqilgan milliy dastur fikrimizga aynan misol bo‘lishi mumkin. Milliy dasturda joriy etilgan qo‘llanma pedagog xodimlar uchun bir qancha qulayliklar tug‘dirdi. Unga ko‘ra 1-2-sinflarda o‘qish savodxonligi va ona tili fanlarining birlashtirilishi fikrimizga dalil bo‘la oladi.

Fanlarni o‘zaro integratsiyalashdan asosiy maqsad o‘quvchiarga berilayotgan bilimlarni takrorlanishini oldini olish, bir xillikka barham berish va vaqt ni tejab qolishdir. Shunday ekan yuqorida ko‘rib o‘tilganidek integratsiyalash orqali biz juda ko‘p vaqt ni tejagan holda o‘quvchilarga har tomonlama puxta bilim berishimiz va



darslarni qiziqarli tashkil etishimiz mumkin bo‘ladi.

O‘qish savodxonligi va tarbiya fanlarini integratsiyalsh haqida bugungi kunda juda ko‘p baxs-munozaralarni ko‘rishimiz mumkin. Ayrim mutaxasislar fikriga ko‘ra har ikki fanni birlashtirgan holda yagona integrativ kurs tashkil qilish bo‘yicha takliflar ham bo‘lgan. Tarbiya va o‘qish fanini bog‘likligini tarbiya va o‘qish savodxonligi deb qaralsa maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bu fanlarning o‘zaro bog‘liqlik jihatlari shundaki, tarbiya fanida ham o‘quvchining savodxonligiga, oqish texnikasi, ifodali va intonatsiya bilan o‘qish jihatlariga e’tibor qaratiladi. So‘zlarni aniq talaffuz qilib o‘qish, ravon, mayin ohang bilan o‘qish talab etiladi. Tarbiya fanida ham o‘qishdagi singari ichda o‘qish, shivirlab o‘qish va ifodali o‘qish jihatlariga ahamiyat beriladi. Shu tomonlariga e’tibor qaratilsa, o‘quvchilarda matn mazmuniga chuqurroq yondashiladi deb o‘yayman. Ovoz chiqarib o‘qishda o‘qilganning mazmuni yuzasidan savollarga javob olish. Bunda ba’zi o‘quvchilarning matn mazmuniga qaramay tez o‘qishlariga chek qo‘yiladi. Ular o‘qiganning mazmunini aytib berishga to‘g‘ri kelishini o‘ylab o‘qiydigan bo‘ladilar. Dialogdan o‘qitish. Bunda bir o‘quvchi savolni o‘qisa, ikkinchisi javobni o‘qiydi.

She’r yodlash. Bolalar she’rni o‘rta tezlikda o‘qishlari kerak. Aks holda ularning o‘qishlari ifodali bo‘lmay qoladi. O‘qish tezligi o‘lchanganda so‘z yoki harf sanaladi. Matn qismlarini navbat bilan o‘qitish. Bunda o‘qish tezligi past bolalar tez o‘qiydiganlarga tenglashgisi keladi. Yoki aksincha boshlang‘ich sinfni tugatdan o‘quvchilar o‘qish ko‘nikmalari quyidagicha bilsa, davlat talabiga xos bilimga ega bo‘ladilar. Adabiy talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ongli, to‘g‘ri ongli va o‘rtacha tezlikda (ovozi chiqarib) bir daqiqada 90-100, ifodali va ichdan 110-130 so‘z o‘qisalar. Sinfda o‘tilgan asar yoki asardan parchani mustaqil tarzda ifodali o‘qish, o‘sha asar yoki parcha qanday mavzuga bag‘ishlanganini aniqlash, unda ishtirot etuvchi qahramonlarga munosabat bildirish. Qahramonlarning fe’l atvori, xatti-harakatlariga qarab ovoz ohangini o‘zgartirish, matndagi urg‘u tushadigan so‘zlarni aniqlash, pauza qilinadigan o‘rinlarni ajratish kabi jihatlariga ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

2-sinf darsligida “Keksa kulol va shogird” ertagi. O‘qituvchi ertakni darslikdan ifodali o‘qib beradi. O‘quvchi tinglaydi. Matnda uchragan notanish so‘zlar yuzasidan lug‘at ishi o‘tkaziladi.

Masalan: Mo‘ysafid – soch saqoli oqargan keksa chol

Kulol – loydan sopol buyumlar yasaydigan xunarmand.

Miridan sirigacha – mayda chuydasigacha batafsil

Dastmoya – ozgina pul mablag‘

Batafsil – butun tafsiloti bilan, xech qoldirmasdan.

Boshqa ertak, xikoyalarda xam lug‘at ustida ishlash ishlari olib boriladi. Ona tili o‘qitish metodikasi psixologiya va pedagogikama’lumotlariga xam tayanadi.



Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish savodxonligi darslarida didaktika bilan, ya’ni bilimning umumiy nazariyasi bilan xam bog‘lanadi. Metodika didaktika belgilab bergen qouniyatlar, qoida va tamoyillarga asoslanadi.

Masalan: 4 sinf o‘qish kitobida “Xarita” matni ustida ishlaganda so‘z va iboralar lug‘ati quyidagicha bo‘lishi mumkin.

Og‘zing ochilib qolsin – xayron bo‘lib qolgin.

Qolipdan chiqqan g‘ishtdek – hamma tamoni birdek tekis.

Loqayd – befarq Kashfiyat –izlanishlar natijasida yaratilgan narsa, ixtiro Ayilday botdi – qattiq tegdi, ranjitdi.

Pisanda qilmoq – oldindan biror shart qo‘ymoq; ta’kidlamoq.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, o‘quvchilarning fikr darajasi, ongi, dunyoqarashlarini oshirish ularni mustaqil fikrlaydigan erkin ishtirokchiga aylantirish nihoyatda muhimdir. Buning uchun mакtabda kitobxonlikni rivojlantishi o‘rqali bunga erishish mumkin. Buning natijasida o‘quvchilarni bilim va tarbiyasini na’zoratga olishimiz mumkin.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ona tili o ‘qitish metodikasi.Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G’ulomova, Sharofat Yo’ldosheva,Sharofjon Sariyev
2. A.Nurmatov va boshqalar. “O‘zbek tilining nazariy sintaksisi”. T. “Fan”, 1992 yil.
3. “PEDAGOGLAR” huquqiy, tibbiy, ijtimoiy, ilmiy jurnal, 11(2)
4. TG'afforova, Sh.Nundlayeva. O‘qish kitobi. 2-sinf. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. - T.. "Sharq". 2012.
5. NSaidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyaiar. T. “Moliya”, 2003.
6. RJo'ruev, A.Zunnunov. Ta'lim jarayomda o'quv ranlarini inlcgratsiyalash. T.. “Sharq”. 2005.
7. T.G'afforova va boshqalar “O‘qish kilobi”, 1-sinf. I . “Sharq», 2013.
8. T. G'afforova “Boshlang‘ich la'linda zamonaviy pedagogik lexnologiyt)- lar”. T.. "Tafakkur", 2011-yil.

